

MAVZU: OZIQ OVQAT MAHSULOTLARINI SIFATINI NAZORAT QILISH

Muminov Azizbek Yakubaliyevich

*Farg'ona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun
ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Tovarning sifatliigi, uzoq muddatliigi (chidamliligi), tashqi ko'rinishi, shaklining chiroyliligi, jozibadorligi, almashuvchanligi, foydalanishga qulayliligi, texnik xizmat ko'rsatishning va ta'mirlash (tuzatish)ning yengilligi.*

Kalit so'zlar: *Iste'molchilar huquqini himoya qilish to'g'risidagi O'R Qonuni, "Aholini sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-110-son, 04.04.2023 y.) sifat tushunchasi xavfsizlik ko'rsatkichi*

Prezidentning aholini sifatli is'temol tovarlari bilan ta'minlash bo'yicha qarori qabul qilindi

Qarorga ko'ra:

- iste'molchilar hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan mahsulotlarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq qilmish uchun javobgarlik kuchaytiriladi;

- etil spirti, alkohol va tamaki mahsulotlarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq qilmish uchun javobgarlik ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib o'rnatiladi;

- sanitariya qonunchiligi va veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalarini buzganlik uchun belgilangan ma'muriy javobgarlik kuchaytiriladi;

- o'zganing tovar belgisidan, xizmat ko'rsatish belgisidan, geografik ko'rsatkichidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan, adashtirib yuborish darajasida ular bilan o'xshash bo'lgan belgidan yoki firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanganlik uchun javobgarlik kuchaytiriladi;

- belgilangan talablar va shartlarning qo'pol ravishda buzilishi oqibatida lisenziyasi bekor qilingan yoki xabardor qilish tartibida faoliyatni (harakatlarni) amalga oshirishi tugatilgan tadbirkorlarga quyidagi ro'yxatda keltirilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanishiga cheklovlar belgilanadi.

Mazkur masalalar yuzasidan tegishli qonun loyihasi ishlab chiqiladi.

Qarorga muvofiq, iste'molchilar huquqlari himoya qilinishini ta'minlash, sertifikatlanmagan, saqlash muddati o'tib ketgan, kontrafakt va iste'molga yaroqsiz tovarlarni ishlab chiqarish holatlari hamda ularning aylanmasiga chek qo'yishda jamoatchilik nazorati kuchaytiriladi. Jumladan:

- murojaatlar yagona axborot tizimi orqali qabul qilinadi va ular vakolatli organlar tomonidan qisqa muddatlarda ko'rib chiqiladi;

- huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslar rag'batlantiriladi.

- 2023 yil 1 iyuldan ko'piklanadigan va tabiiy vino mahsulotlari aksiz markalari bilan markalanmaydi.

- 2023 yil 1 avgustdan alkogol mahsulotlarining tovar belgilari ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi guvohnomaning mavjudligi alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish uchun lisenziya talabi hisoblanadi.

- 2023 yil 1 sentyabrdan tamaki mahsulotining ulgurji va chakana savdosi, pivo mahsulotining ulgurji savdosi xabardor qilish tartibida amalga oshiriladi.

Qonunda normalangan iste'molchining asosiy va muhim huquqlaridan biri, bu ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)lar tomonidan iste'molchilarga taqdim etilayotgan tovar (ish va xizmat)lar natijalarini tegishli darajada sifatli bo'lishiga bo'lgan huquqidir. Qonunda iste'molchining tovar (ish, xizmat) sifatini tekshirish huquqi o'z aksini topgan (Qonunning 8-moddasi, 5-qismi). Tovar (ish, xizmat)ning tegishli darajada sifatli bo'lishiga nisbatan talablar birinchi galda ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ga qaratilgandir. Shu o'rinda «sifat» degan iborani talqin etib o'tish joiz.

Ko'plab olimlar unga turlicha ta'rif berishgan. Jumladan, Aristotel fikricha, «sifat shunday mavjud turga xos alomatki, u bir mavjudlikni, uning turiga xosligini boshqa mavjudlikdan, xuddi shu turga kiruvchidan ajratadi», ya'ni «narsalarni taqqoslab baholashga oid xususiyatdir». Gegel esa, «shunday narsalar borki, o'zining sifatiga qarab borligini tasdiqlaydi», deb ta'kidlaydi. Bundan to'rt asr ilgari ingliz geografi va tarixchi olimi R. Gaklyut eksportyorlarga qarata: «...sizning mahsulotlaringiz sifati ishonchliligi, boshidanoq sizning mahsulotingizga nisbatan ishonch uyg'otadi, ammo o'z vaqti bilan soxta va yolg'on mahsulotlar bu ishonchni yo'qotib, sizga sizning mahsulotlaringizga nafrat hamda obro'sizlanishni unutmang» deb tavsiya etgandi. Sifatni: «Sifat – muhim belgi, xususiyat bo'lib bir predmetni ikkinchi predmetdan ajratish imkonini yaratadi»; «sifatlilik – sifati yaxshi, ehtiyojlarni qondiruvchi» deb sharxlash mumkin. Tovar (ish, xizmat) sifati – tadbirkorlik faoliyati foydaliligini belgilovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Demak, sifat bu – birinchi galda farq, ikkinchi galda ishonch, uchinchi galda baho, to'rtinchi galda obro'ni belgilaydi.

Sifat jihatidan talabga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat)larni qabul qilish yoki qilmaslik borasida iste'molchiga keng huquqlar beriladi. Bunday qoidaning nazarda tutilishi, avvalo, iste'molchi sifatida tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchilarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Tovarning sifatlilikini quyidagi jihatlar bilan belgilash mumkin:

- Sifatning oliy darajasi (foydalanish uchun yaroqlilik, ehtiyojni to'la qanoatlantirish xususiyati).
- Uzoq muddatliligi (chidamliligi).
- Tashqi ko'rinishi, shaklining chiroyliligi, jozibadorligi.
- Almashuvchanligi.
- Foydalanishga qulayliligi, texnik xizmat ko'rsatishning va ta'mirlash (tuzatish)ning yengilligi.
- Montaj qilish (yig'ish)ning yengilligi va ekspluatatsiya (ishlatish)da qulayligi.

- Xavfsizlik ko'rsatkichi.

- Yuzaga keladigan (qo'shimcha yuklanishga chidamliligi)(peregruzok) ni aniqlash darajasi.

- Xizmat ko'rsatishning kafolatlanganligi, boshqa parametr (jihat)lari.

Demak, sifatli tovar topshirish majburiyatini olgan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchiga yuqorida sanab o'tilgan talablarni o'zida aks ettirgan tovarni topshirishi kerak bo'ladi.

Sifatni mahsulotning unga qo'yiladigan talablarga javob berish darajasiga mos kelishiga qarab tushunish mumkin. Ya'ni: birinchidan, sifat har bir mahsulotning ko'pgina xususiyatlariga bog'liq;

ikkinchidan, agarda iste'molchi mahsulotning xususiyatlarini ularning ahamiyatiga qarab guruhlash imkoniyatiga ega bo'lsa, sifat raqamlar bilan ifodalanishi mumkin;

uchinchidan, sifat – bu o'lchanadigan qiymat, demak, mahsulotning unga qo'yiladigan talablarga javob bermasligini, unda voqe' bo'ladigan ma'lum bir qiymatga qarab, ko'p hollarda uning narxiga qarab aniqlash mumkin bo'ladi.

Mahsulotning sifatligini, ya'ni sifati lozim darajadiligini belgilovchi yana bir jihat – bu uning ishonchliligidir. «Ishonchlilik» - mahsulotni belgilangan vaqt davomida, alohida sharoitlarda qo'yilgan talablarga mos keluvchi funksiyani (faoliyatni) bajara olishidir». Ishonchlilikni sifatning ma'lum darajada ta'minlash usuli, deyish mumkin. Ishonchlilik tovar sifati bilan o'rnatiladi. Shuning uchun ham sifatni huquqiy jihatdan ifodalash talab etilarkan, ishonchlilik tushunchasi tarkibiga – tuzatish (ta'mir)ga loyiqlik, uzoq muddatlilik va saqlanuvchanlikni kiritish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida O`R Qonuni. 26.04.1996 yil

2. “Aholini sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident qarori (PQ-110-son, 04.04.2023 y.)

3. R.Normaxmatov. «Tovarshunoslik asoslari, standartlashtirish va sertifikatlashtirish» KXK uchun o'quv qo'llanma. 2004 yil

4. X.Muxitdinov va boshqalar. «Tovarshunoslik» KXK uchun o'quv qo'llanma. 2010 yil.

5. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.

6. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.

7. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
8. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
9. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). NEYRON TARMOQLARNING TASNIFI. Scientific Impulse, 1(3), 757-763.
10. Hamidullo o'g'li, Tursunov Hojiakbar, and Boymuratov Erkin Kamolovich. "IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI." Scientific Impulse 1.7 (2023): 648-653.
11. Internet manbalar.